

Единый портал корпоративной информации

Объявления

"Mikrokreditbank" ATB

Объявление

"MIKROKREDITBANK" AKSIYADORLIK-TIJORAT BANKI

AKSIYADORLARNING NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG'ILISHI

"Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki aksiyadoriga

HURMATLI AKSIYADORLAR!

"Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2024-yil 16-yanvar kuni, soat 10:00 dan boshlab, Toshkent shahri, Lutfiy ko'chasi, 14-uy manzilida joylashgan "Mikrokreditbank" ATB majlislar zalida o'tkazilishini ma'lum qiladi.

Yig'ilish kun tartibi:

1. "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki Aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.
2. "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki Kuzatuv kengashi a'zosi Isakov Odilbek Rustamovichning o'z vakolatlarini muddatidan oldin tugatishi.

"Mikrokreditbank" ATB Kuzatuv kengashining 2023-yil 21-dekabrda majlisi qaroriga asosan, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar reestri 2024-yil 10-yanvar kuni holatiga hamda umumiy yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar qilish uchun aksiyadorlar reestri 2023-yil 21-dekabr kuni holatiga tuziladi.

Aksiyadorlarni ro'yxatga olish 2024-yil 16-yanvar kuni soat 09:00 dan 09:50 gacha davom etadi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishda shaxsini tasdiqlovchi hujjat va yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida qatnashadi, yuridik shaxs nomidan berilgan ishonchnoma qonunchilikda belgilangan tartibda, jismoniy shaxs nomidan berilgan ishonchnoma notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida videokonferens-aloqa tarzida ishtirok etuvchi aksiyadorlarga bu haqda qo'shimcha ma'lumot beriladi.

Yig'ilish o'tkazish bo'yicha qo'shimcha axborot, unda ko'riladigan masalalarning hujjatlari bilan yuqoridagi manzilga va quyidagi telefon raqamlariga murojaat qilish hamda bankning korporativ veb-sayti (www.mikrokreditbank.uz (<http://www.mikrokreditbank.uz/>)) orqali tanishish mumkin.

Tel: 998 (71) 202-99-99 (1304) Bank Kuzatuv kengashi

22.12.2023

Дата: 07.05.2026